

“AL-JOME AS-SAHIH” ASARINING O’RGANILISHI VA UNGA YOZILGAN SHARHLARNING AHAMIYATI

Razzoqov Bilimjon

*“Sayyid Muhyiddin maxdum” o’rta maxsus
islom bilim yurti mudarrisi*

Annotatsiya: Maqolada Imom Buxoriy asarlarining, jumladan, “Al-Jome as-sahih”ning yozilish tarixiga oid qarashlar, asarni yozishdagi e’tiborga molik jihatlar haqida gap boradi. Unda turli davr ulamolarining mazkur asarga yozgan sharhlari, shuningdek, ularning ahamiyati ham o’z aksini topgan.

Kalit so’zlar: sahih hadis, manhaj, siqot ulamolar, isnod muttasil, qo’lyozma

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti marhum Islom Karimov shunday degan edi: “Buyuk mutafakkir va allomalarimizning islom madaniyatini ravnaq toptirishga qo‘shgan betakror hissasi to‘g‘risida so‘z yuritganda, eng avvalo, haqli ravishda musulmon olamida “muhaddislar sultoni” deya ulkan shuhrat qozongan Imom Buxoriy bobomizning muborak nomlarini hurmat-ehtirom bilan tilga olamiz. Bu mo‘tabar zot merosining gulto‘ji bo‘lmish eng ishonchli hadislar to‘plami – “Al-Jome as-Sahih” kitobi islom dinida Qur’oni karimdan keyingi ikkinchi muqaddas manba bo‘lib, ahli islom e’tiqodiga ko‘ra, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug‘i hisoblanadi. Mana, o‘n ikki asrdiki, bu kitob millionlab insonlar qalbini imon nuri bilan munavvar etib, haq va diyonat yo‘liga chorlab kelmoqda”.

Imom al-Buxoriy nafaqat yirik olim, balki o‘zining go‘zal xulq-atvori, odamoxunligi, muruvvatligi, himmati va beqiyos saxovati bilan boshqalardan tamomila ajralib turgan. U zehni o‘tkirligi va yodlash qobiliyatining kuchliligi bilan ham xalq orasida g‘oyat shuhrat qozongan. Manbalarda al-Buxoriyning 600 mingga yaqin hadisni yod bilgani qayd qilingan.¹

Imom Buxoriyning «Al-Jome as-Sahih» asari islom dini ta’limotlariga ko‘ra, Qur’oni karimdan keyingi asosiy manba hisoblanadi. Bu asarning to‘lig‘icha «Al-Jome as-sahih al-musnad min hadis Rasululloh-sollallohu alayhi va sallam va sunanihi va ayyomihi» yoki tarixchi Badruddin al-Ayniyni yozishicha, «Al-Jome al-musnad as-sahih al-muxtasar min umuri Rasulillah-sollallohu alayhi va sallam va sunanihi va ayyomihi» degan nomlar bilan atalsa-da, hadis ilmida qisqacha «Al-Jome as-Sahih» («Ishonchli to‘plam»), aksar holda esa «Sahihul Buxoriy» nomi bilan mashhurdir. Asarning qirqa yaqin qo‘lyozma nusxalari Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida va yana bir qancha nusxalari O‘zbekiston musulmonlari idorasining kutubxonasida saqlanadi.

¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Imom_al-Buxoriy_saboqlari

Ushbu asarning yozilish sabablari haqida mulohaza yuritilganda azaldan olimlar o'rtasida ikki xil fikr mavjud. Ulardan biri olim Ibrohim ibn Ma'qal an-Nasafiy (854-yilda vafot etgan) Imom Buxoriyning nomidan shunday hikoya qiladi: «Bir kun biz Is'hoq ibn Rohvayhning huzurida bo'lgandik. Shunda u: «Birontangiz Rasulluloh-sollallohu alayhi va sallamning sahih hadislarini muxtasar bir kitob tarzida jam qilsangiz edi», – dedi. Bu gap mening qalbimga chuqur o'rnashib qolib, o'shandan boshlab «Al-Jome as-Sahih» asarimni yozishga kirishdim».

Tarixchi an-Navaviy keltirgan ikkinchi fikr quyidagicha talqin qilingan: «Muhammad ibn Sulaymon ibn Forisning hikoyasi: Men imom Buxoriy hazratlari shunday deganini eshitganman: «Tushimda Payg'ambar alayhissalomni ko'ribman, go'yoki men u zotning ro'baro'larida turibman-u qo'limdagi yelpig'ich bilan u zoti sharifdan nimalarnidir haydayapman. Men bu voqea haqida tush ta'birini aytuvchilardan so'rasam, Siz Payg'ambar alayhissalom qavllarini kizbdan tozalagansiz. Mana shu gap mening zimmamga «Al-Jome as-Sahih»ni yozishni yukladi».

Imom Buxoriy g'oyatda taqvodor va pokiza inson bo'lganligidan Muhammad alayhissalomning sahih hadislarini to'plashga juda katta mas'uliyat va halollik bilan yondashgan. Shu boisdan ham allomaning o'zi: «As-Sahih» kitobimga tahorat qilib ikki rakat namoz o'qimasdan turib bironta ham hadis kiritmaganman», deb ta'kidlaydi. O'rni kelganda ta'kidlash joizki, Payg'ambar hadislariga bag'ishlanib o'sha davrda yaratilgan asarlarga xilma-xil hadislar bilan bir qatorda sahobalarning qavllari-yu tobeinlarning fatvolari ham kiritilgan. Bunga misol qilib mashhur olim Molik ibn Anasning (712-795) «al-Muvatto» va boshqa qator asarlarni ko'rsatish mumkin.

Imom Buxoriyning bu yirik asari, muallifning o'zi va aksar olimlarning yozishlaricha, olti yuz ming hadisdan saralanib, sahihlari tanlab olingan va o'n olti yil davomida ta'lif etilgan. Asar qayerda yozilgan deb savol tug'ilishi ham tabiiy. Bu masala haqida ham turli fikrlar aytilgan. Tarixchi ibn Hajar al-Asqaloniy mana shu fikrlarni jamlab shunday xulosaga kelgan: Imom Buxoriy bu yirik asarini yozishni va uning asosiy mundarijasini tuzishni Makkayi mukarramada – Baytulloh al-Haromda bo'lgan vaqtidan boshlab o'z ona yurti Buxoroda asarini nihoyasiga yetkazib oqqa ko'chirgan.²

Albatta, alloma o'z asariga kiritgan aksar hadislarini xorijiy yurtlarda safarda bo'lganida to'plagan. O'z asarini ishonchli manba sifatida bo'lishga alohida e'tibor bilan qaradi, shu boisdan ham uni uch marta tahrir etib ushbu tasnifini tugatdi. Natijada islom olamidagi barcha muhaddislarga namuna bo'ladigan, Payg'ambar alayhissalomning sahih hadislarini o'zida mujassam qilgan mukammal bir asar yaratildi. Imom Buxoriyning hadis ilmi va uning turli tarmoqlari, roviylar tarixlaridan har tomonlama to'liq va keng qamrovli ilmga ega bo'lishi, hadislarini to'plash

² «Imom Buxoriy ta'rifi» (tarjima va izohlarmuallifi Saidazim Muhammad Ali), Toshkent, «Cho'lpon», 1996. – B.124.

maqsadida turli mamlakatlarga ilmiy safarlar qilishi, ko'p sonli va xilma-xil saviyadagi ustoz-u shayxlardan hadislar yozib olganligi va nihoyat uning aql bovar qilmaydigan darajada quvvai hofizasining kuchliligi, noyob qobiliyati va fidoyiligi – mana shu omillar allomaga «Al-Jome as-Sahih»dek ilmiy va amaliy jihatdan yuksak saviyada bo'lgan yirik asar yaratish imkoniyatini berdi. Shu bilan birga aytish kerakki, muallif o'z asari uchun ma'lumotlar to'plashga va ularni ta'lif etishga ko'p ham shoshilmadi, balki chuqur ilmiy poydevorga (manhajga) tayangan mukammal reja asosida ish olib bordi. Bu jihatlar hadislar to'plashda ham, ularni asar sifatida yaxlit tartibga keltirishda ham, uning yozilish muhlatida (o'n olti yil davomida) ham, shunday noyob asar yaratilishi uchun katta ahamiyat kasb etadigan ilmiy muhit mavjud bo'lgan turli-tuman (Makka, Madina, Basra, Bag'dod, Buxoro) shaharlarda yozilishi ham bir so'z bilan aytganda, mazkur omillarning barchasi o'ziga xos buyuk asar yaratilishi uchun poydevor bo'lib xizmat qildi.

Imom Buxoriyning o'ziga xos uslubi bo'lib, bu o'rinda u yiqqan hadislar roviylarining hissasi alohida o'rin tutadi. Chunonchi, bu xususda manbalarda «Sahih»ni imom Buxoriydan yetmish, to'qson, yuz ming roviylar rivoyat qilganligi qayd qilinadi. Uning roviylari jumlasidan imom Muslim ibn al-Hajjoj, Abu Zur'a, imom Termiziy, ibn Huzayma kabi hadis ilmining yetuk darg'alari ham bo'lgan. Hadislarni roviylardan yozib olishga ham imom Buxoriy juda katta mas'uliyat va ehtiyotkorlik bilan yondashib, faqat eng ishonchli olim-u ulamolardangina qayta-qayta tekshirib hadis yozib olgan. Bu xususda allomaning o'zi «ming yoki undan ortiq ishonchli (siqot) ulamolardan hadis yozib oldim, mening asarimga isnodi keltirilmagan bironta ham hadis kirmagan», deb ta'kidlaydi. Shu boisdan hadis rivoyat qiladigan shaxslarning ahvollari, ularning nasl-nasabi, u hadisni kimdan eshitgan va boshqa qator masalalarni to'liq bilgach, ulardan hadis yozib olgan. Bu haqida imom Buxoriy «Biron kishidan hadis yozib olishim boshqalarnikiga o'xshamas edi. Men agar biron shaxsdan hadis yozmoqchi bo'lsam, eng avvalo uning ismi sharifi, kunyasi, nasl-nasabi, aytayotgan hadisini qanday manbadan olgan, uning nusxalari haqidagi xabarlarini so'rab-surishtirar edim, ammo boshqalar esa bu masalalarga ko'p ham e'tibor bermaydilar» deb hikoya qiladi.³ Uning «iymon-qavl va unga amal qilish» demagan hech bir kimsadan hadis yozmaganligi olim uchun qat'iy bir qoida va dasturulamal sifatida butun umri mobaynida davom etdi. Barcha ilmiy faoliyatida mana shu tartibotga qat'iy amal qildi. Alloma Abu Ja'far al-Uqayliyning yozishicha, imom Buxoriy «Sahih» asarini yozib tugatgach Ahmad ibn Hanbal, Yaxyo ibn Ma'iy, Ali ibn al-Madiyniy va boshqa mashhur olimlarga ko'rsatganda ular bu asarni katta mamnuniyat bilan ma'qullaganlar.

Imom Buxoriyning shoh asari «Al-Jome as-Sahih»ga arab tilida juda ko'p sharhlar va hoshiyalar yozilgan bo'lib, ular hajm va ahamiyati jihatidan xilma-xildir.

³ Shayx Abdusalom Muborakfurii. "Siyratul Imom al-Buxoriy", Dehli shahri.

Qator manbalarda (masalan, Hoji Xalifaning «Kashf uz-zunun», al-Qastaloniyniing «Muqaddima», Umar Rizo Kahholaning «Mu'jam al-muallifiyn» kabi manbalarda keltirilishicha, ularning soni yuzga yaqindir. Mana shu sharhlar va ularning mualliflari haqida muxtasar ma'lumotlar keltirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

1. «Sharh Ibn al-Munayyir»ning muallifi Imom Nosiruddin Ali ibn Muhammad ibn al-Munayyir al-Iskandaroniy (1296-yil vafot etgan) bo'lib, uning qalamiga mansub bu ulkan sharh o'n katta jildan iborat. Shuningdek, imom Nosiruddin «Sahih Buxoriy»ga bag'ishlangan Ibn Battolning sharhiga tegishli hoshiyalar ham yozgan.

2. «Sharh Sahih Buxoriy»ning muallifi shomlik olim Qutbiddin Abdulkarim ibn Abdunnur ibn Muniyr al-Halabiy al-Hanafiyydir (vafoti 1344-yil). O'n jildan iborat bo'lgan bu sharh «Sahih»ning yarimigacha yetgan. Muallif imom Buxoriy asariga mukammal bir sharh yozishni niyat qilgan ko'rinadi, lekin, afsuski, bu sharh oxirigacha yetmay qolgan.

3. «Al-Kavokib ad-Diroriy» nomli sharhning muallifi alloma Shamsuddin Muhammad ibn Yusuf ibn Ali al-Kirmoniy (vafoti 1384-yil). Ilm ahllari uchun g'oyatda foydali bo'lgan bu sharhda muallif «Sahih Buxoriy»ning shu xildagi boshqa asarlardan ustunligi haqida ishonchli va yorqin dalillar keltirgan. Al-Kirmoniyniing bu asari «Sahih»ga yozilgan sharhlarning eng muhimlaridan hisoblanadi. Muallif ushbu asarini 1373-yilda Makkayi mukarramada yozib tugatgan. Mashhur olim Ibn Hajar al-Asqaloniyniing fikricha, al-Kirmoniyniing bu sharhi qator xato-kamchiliklardan ham xoli emas. Bu asar Qohirada chop etilgan bo'lib, uning qator qo'lyozmalari Qustantaniyaning kutubxonalarida saqlanadi.

4. «At-Talviyh» nomli sharh imom al-Hofiz al-Mug'ultoiy ibn Qilich at-Turkiy Alouddin al-Misriy al-Xanafiyniing (vafoti 1361-yil) qalamiga mansub. Hajm jihatidan katta bo'lgan bu asar ham «Sahih»ga yozilgan muhim sharhlardan hisoblanadi.

5. Shayx al-Islom Abul-Fazl Ahmad ibn Ali ibn Hajar al-Asqaloniyniing (vafoti 1448-yil) «Fath al-boriy li sharhi Sahih Buxoriy» nomli sharhi imom Buxoriyniing asariga bitilgan eng mo'tabar sharhdir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Imom Buxoriyniing ijodiy merosi o'zining hajmi, zamonasining diniy va ijtimoiy fanlarini to'la-to'kis qamrab olganligi bilan kishini hayratga soladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yilning 14-15 aprel kunlari Samarqand viloyatiga qilgan tashrifi chog'ida Imom Buxoriy yodgorlik majmui qoshida xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini qurish taklifini bildirib, shunday degan edi: “Buyuk mutafakkir bobomiz, barcha muhaddislar peshvosi Imom Buxoriy mangu qo'nim topgan ushbu maskanda o'ziga xos ma'naviy-ruhiy muhit mavjud. Majmuaga ziyoratga kelgan odam bu markazga ham kirib, o'ziga katta ozuqa olsin, bobolarimiz hikmatlaridan o'rganib ketsin. Shunda ularning qalbida ulug' ajdodlarimiz bilan faxrlanish tuyg'usi rivoj topadi, ayni paytda shunday buyuk

zotlarning avlodi mas'uliyatini his etadi".⁴

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Imom Buxoriy ta'rifi" (tarjima va izohlarmuallifi Saidazim Muhammad Ali), Toshkent, "Cho'lpon", 1996.
2. Shayx Abdusalom Muborakfuriy. "Siyratul Imom al-Buxoriy", Dehli shahri.
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Imom_al-Buxoriy_saboqlari
4. <https://religions.uz/uz/news/detail?id=501>

⁴ <https://religions.uz/uz/news/detail?id=501>